



NODIRA SHE'RIYATIDAN SABOQ OLAMIZ.



O'zR FA Alisher Navoiy nomidagi
Davlat adabiyot muzeyi tadqiqotchisi
Nurutdinova Malikaxon Sharabovna
malika122yun@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada mumtoz adabiyoti vakilasi Nodiraning ijodining o'ziga xos xususiyatlari haqida so'z boradi. Maqolada g'azal mumtoz adabiyotimizda keng qo'llangan firoq, ayriliq mavzusiga bag'ishlangan. G'azalda "Firoq" so'zining radif sifatida qo'llanilishi shoira oldiga qoygan maqsadini bayon etishiga yordam beradi. Zohiran yordan shikoyat, botinan olam va odam, yashashdan murod va maqsad hamda falsafiy qarashlar ham namoyondir. Matla'dayoq kuchli mubolag'aviy tasvirga ega bo'lamiz. Oshiq intizorlik bilan yor vasliga intilishini, intizorlikgan sabr kosasi to'lganligini, judolikdan beqror ekanligini ko'rsatishda firoq so'zi badiiy vosita sifatida xizmati kabi masalalar ustida ham fikrlar bildiriladi.

Kalit so'zlar: mumtoz, adabiyot, kechirimli, majnun, raqiblar, shahriyor, soqiy, may quyuvchi, kosagul, maxmur, mast, kayfi oshgan, sipehr, osmon, falak, hajr, ayriliq, judolik, yetisha olmaslik.

Аннотация: В данной статье говорится об уникальных чертах творчества Нодир, представителя классической литературы. В статье газели посвящены теме разлуки, широко используемой в нашей классической литературе. В газели употреблены слова «Разлука» в качестве излучателя помогает поэтессе выразить свою цель, проявляются также внешняя жалоба, внутренний мир и люди, желание и цель жизни, философские конфликты. Уже в Матле мы имеем сильно преувеличенный образ. Высказываются мнения и по таким вопросам, как использование слова «прощай» как художественного средства, чтобы показать, что влюбленный жадно ищет себе пару, что чаша терпения полна и что он не боится разлуки.

Ключевые слова: классика, литература, прощающий, безумный, соперники, городской, трезвый, может вукчи, косагуль, махмур, пьяный, приподнятое настроение, небо, хаджр, разлука, развод, невозможность дойти.

Annotation: This article talks about the unique features of the work of Nodira, a representative of classical literature. In the article, the gazelles are devoted to the theme of separation, which is widely used in our classical literature. In the ghazal, the words "Separation" are used as an emitter, helping the poetess to express her goal, external



complaints, inner peace and people, desire and purpose of life, philosophical conflicts also appear. Already in Matla we have a greatly exaggerated image. Opinions are also expressed on such issues as the use of the word "farewell" as an artistic device to show that the lover is eagerly looking for a mate, that the cup of patience is full and that he is not afraid of separation.

Key words: classical, literature, forgiving, crazy, rivals, sober, makhmur, drunk, high spirits, sipehr, sky, sky, hajr, separation, divorce, inability to reach.

Nodira.

(1792 — 1842)

Firoq...

Yordin ayru ko'zumni intizor etti firoq,

Qolmadi sabru qarorim beqaror etti firoq.

Xoki poyingni ko'zumga to'tiyo qilmoq uchun,

Ixtiyorim bor edi, beixtiyor etti firoq.

Yorsiz devonamen ma'zur, ey ahli xirad,

Oqili davron edim, Majnun shior etti firoq.

Vasl aro pinxon edi holi dilim ag'yordin,

Xalq aro rasvolig'imni oshkor etti firoq.

Aylabon javru sitam hoki tanim tufrog'ini,

Poymoli hodisot aylab g'ubor etti firoq.

Vasl gulzorida shoxi guldek erdi izzatim,

Bo'ldi ayyomi xazoni hajr xor etti firoq.

Yig'lamoq birla beray sayqal ko'zum oyinasin,

Orzumandi jamoli shahriyor etti firoq.

Soqiy, keltur qadahkim yorsiz maxmurimen,

Nash'ai iqbolimi ranji xumor etti firoq.

Hajr shomida sipehr anjumanlaridin qil qiyos,

Nodira, dog'i dilimni oshkor etti firoq.

(Nodira “Devoni” 97-gʻazal, 153-bet)

Lugʻat;

Toʻtiyo-mis zangidan hosil boʻlgan koʻkimsir kristall. (ilgarilari koʻz ogʻrigʻiga qarshi va koʻzni ravshan qilish uchun ishlatilgan).

Maʼzur- uzurli, kechirimli

Xirad- aql, hush, zehn, fahm-farosat

Majnun- jinni, devona

Agʻyordin- begonalar, raqiblar

Shahriyor- buyuk podshoh, odil podshoh

Soqiy- may quyuvchi, kosagul

Maxmurimen- mast, kayfi oshgan

Sipehr- osmon, falak

Hajr- ayriliq, judolik, yetisha olmaslik.

Ushbu gʻazal mumtoz adabiyotimizda keng qoʻllangan firoq, ayriliq mavzusiga bagʻishlangan. Gʻazalda “Firoq” soʻzining radif sifatida qoʻllanilishi shoira oldiga qoygan maqsadini bayon etishiga yordam beradi. Zohiran yordan shikoyat, botinan olam va odam, yashashdan murod va maqsad hamda falsafiy qrashlar ham namoyondir.

Matlaʼdayoq kuchli mubolagʻaviy tasvirga ega boʻlamiz. Oshiq intizorlik bilan yor vasliga intilishini, intizorlikgan sabr kosasi toʻlganligini, judolikdan beqror ekanligini koʻrsatishda firoq soʻzi badiiy vosita sifatida xizmat qilgan:

Yordin ayru koʻzumni intizor etti firoq,

Qolmadi sabru qarorim beqaror etti firoq.

Keyingi baytda lirik qahramon yorning xoki poyini koʻziga toʻtiyo qilmoqchi boʻlyapdi-yu, goʻyo unga beixtiyor:

Xoki poyingni koʻzumga toʻtiyo qilmoq uchun,

Ixtiyorim bor edi, beixtiyor etti firoq.

Uchinchi baytda tasvir yanada kuchaydi. Mazmun va uslub jihatidan boshqa gʻazal tarkibidagi baytlardan ajralib turadi. Mumtoz adabiyotidagi tashbihga koʻra, firoq gʻami shunday ortdiki, endi oshiq uchun shodlik va xursandchilikdan hech nima qolmadi. Aqli hushini yoqotib devonaga aylanib qolishi oʻquvchi koʻz oldida aniqroq, asar timsolidagi maʼnaviy qiyofani yorqinroq ochib berishga xizmat qiladi:

Yorsiz devonamen ma'zur, ey ahli xirad,

Oqili davron edim, Majnun shior etti firoq.

Keyingi baytda tadrijiylik davom etadi, "Vasl aro pinxon edi holi dilim ag'yordin" deb iddao qilgan edi, ammo firoqning shiddati xalq orasida rasvoligi oshkor qildi. "Nodira pokiza qalb egasi, olijanob fazilatli ijodkor bo'lganligi uchun saroyda shohona hayotda yashasa ham, o'zini ma'naviy jihatdan baxtiyor hisoblay olmas edi":

Vasl aro pinxon edi holi dilim ag'yordin,

Xalq aro rasvolig'imni oshkor etti firoq.

Keying baytda yana sharhi hol mazmuniga qaytiladi. Shoira qiyinchilik tufayli tani tufroqqa aylanganini oqibat g'ubori qolmaganini aytdi:

Aylabon javru sitam hoki tanim tufrog'ini,

Poymoli hodisot aylab g'ubor etti firoq.

Quyidagi baytda mumtoz adabiyotida shoirlarimiz tasvir usullari, har bir asarning nafosat-u nazokatini tushunib yetish uchun ham so'z san'atini tabiati, badiiy tasvir usullari, she'riy san'atlar aruz, va qofiyaga doir ilmlardan xabardor bo'lishgan, aynan Nodirabegim bu san'atlarni puxta egallagani shu baytda o'z tasdig'ini topgan. Oshiqning izzati gulzordagi gul kabiligi, yorning vasliga yetisha olmay xazon kabi xor bo'lganini ta'kidlaydi. Tashxis san'atidan foydalanib, chiroyli va nafis obrazlilikka erishgan:

Vasl gulzorida shoxi guldek erdi izzatim,

Bo'ldi ayyomi xazoni hajr xor etti firoq.

Keyingi baytda ishq odobini yana bir qirrasini ko'zga tashlanadi: mashuqaning orzusi, istagi odil podshoh bu istak muhokama qilinmaydi:

Yig'lamoq birla beray sayqal ko'zum oyinasin,

Orzumandi jamoli shahriyor etti firoq.

Ushbu begona baytda asardagi badiiy g'oya, shoiraaning niyati o'z ifodasini topgan. Hayot hodisasi haqida tasavvurini va o'sha hodisaga munosabatini bildiriyapdi. Mubolag'a (giperbola) san'atidan foydalanib oshiq kayfiyatini bo'rttirgan:

Soqiy, keltur qadahkim yorsiz maxmurimen,

Nash'ai iqbolimi ranji xumor etti firoq.

G'azalning oxirgi maqtasida g'azal g'oyasi va mazmuniga ko'ra oshiqona asarligini yana ham yaxshiroq his etasiz. Ya'ni lirik qahramoni o'zi uchun behad qadrlil bo'lgan kishisidan ayriliqda ekaninidan shikoyat qiladi. Maqtada geografik nomlar (osmon, falak) bir vaqtni



oʻzida kuy nomlari bilan hamohanglik kasb etishi natijasida iyhom sanʼatini vujudga keltirib chiqargan, bu shoiringning boshqa gʻazallarida ham kuzatiladi.:

Hajr shomida sipehr anjumanlaridin qil qiyos,

Nodira, dogʻi dilimni oshkor etti firoq.

Polatjon Qayumovning “Xoʻqand tarixi va uning adabiyoti” asarida bir fikr bildirganlar “Maʼlumki, sheʼr nutqning oliy toifasidagi qurilmasidir. Unda oʻlchov, qofiya, ohang va shunga oʻxshagan bir necha galda zarur boʻlgan oʻziga xos fazilatlar bor. Oddiy soʻzlashuv nutqidan ushbular ajraladi. Bundan tashqari ham sheʼrda fikr bilan bir qatorda his ham boʻlishi kerak. Fikrsiz sheʼr boʻlmaganidek, his va hayajonsiz sheʼr ham boʻlmaydi.” Ustoz bejizga bunday fikr bildirmaganlar. Nodira oʻz fikriga ega, his va hayajonga toʻla ifoda usuli mavjud. U soʻz ustasidir. Biz yashab turgan davrda ham Nodiraning maʼnaviy merosi badiiy adabiyotda chuqur ijobiy ahamiyat kasb etadi. Oʻzbek shoiralari adabiy merosini oʻrganish-oʻzbek adabiyoti tarixidagi oʻziga xos xususiyatlarga ega boʻlgan alohida maktabni oʻrganish demakdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sariyev Sharafjon, Adabiyot[Matn] metodik qoʻllanma; \-Toʻldirilgan va qayta ishlangan eng yangi nashr.- Toshkent; Yangi kitob, 2018.-512b.
2. M.Qodirova. Nodira. Hayoti va ijodi.-T.: “Fan” 1964.101b.
3. T.Jalolov , Oʻzbek shoiralari, 1-kitob, 2nashr, T., 1970;
- 4.“XIX asr oʻzbek shoiralari ijodida inson va xalq taqdiri” Mahbuba Qodirova monografiyasi Toshkent. OʻzSSR “Fan” nashriyoti 1977-yil 186 bet.
- 5.Xoʻqand tarixi va uning adabiyoti: (materiallar va xotiralar) / Poʻlatjon Qayumov;nashrga tayyorlovchi A.Qayumov; masʼul muharrir va soʻzboshi muallifi O. Joʻraboyev.-T.: Tamaddum, 2011.-380 bet.
- 6.Отабек Жўрабоев Матнинг матности сирлари / монография. О. Жўрабоев; масъул муҳаррир А. Қаяумов. – Тошкент: «Тамaddun», 2017. –1. 200 б.
- 7.Отабек Жоʻрабойев Mumtoz adabiyotida mugʻanniynoma:risola \О. Жоʻрабойев.- Toshkent, “Tamaddum” nashriyoti, 2016.-40b.